ISSN: 1994-4233
E-ISSN: 2181-1237
DOI: 10.36078

Filologiya Masalalari
Philology Matters

ILMIY-METODIK
JURNAL

2024/3

MUNDARIJA

TILSHUNOSLIK

Zohid SADIQOV. Qadimgi turkiy situativ realiyalarni zamonaviy tillarga tarjima qilish usullari.....3
Iroda KAXAROVA. Ingliz va o‘zbek tillarida alohida so‘zlarning sintaktik va derivatsion xususiyatlari 18
Iroda TURAMURATOVA, Viktoriya G‘OFUROVA. Ispan tilida ayol gender rolining lisoniy tadqiqi.....38
Dilmurod ESHANQULOV. Qoraxoniylar davrida til, ta’lim va madaniyat 56
Shohruh JO‘RAYEV. Rasmiy hujjatlarda shaxsni bildiruvchi lotincha va yunoncha leksemalarning semantik xususiyatlari 70

ADABIYOTSHUNOSLIK

Rayxon NAZAROVA. Tarixiy roman janrining taraqqiyot bosqichlari va an’analari evolyutsiyasining tadqiqi 88
Dilrabo TOHIROVA. Syuzan Hill asarlarida bolalar obrazi tasviri 105
Nilufar QURBONOVA. Horror janrining ingliz adabiyotidagi evolyutsiyasi.....127
Shalola DAVLATOVA. Robert Byornsning ijod yo‘li 143

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI

Dilobar ABDUXALILOVA. Adekvatlik va ekvivalentlik masalalari: Gyotening she’riyatida tarjima muammolari.....163

METODIKA

Feruza RASHIDOVA, Nilufar TILLAYEVA. Suqrot seminarlari va Blum taksonomiyasini integratsiyasi orqali yozma ko‘nikmalarni rivojlantirish.....181
Marion GRAYN. Nemis tili chet tili va ikkinchi til sifatida, nemis tili va adabiyotida identiklik 197
Go‘zal NURMATOVA. EFL talabalarining nanotexnologiyalar sohasidagi ilmiy terminologiyani tushunishida korpus yondashuvlarining samaradorligi 210
Dilafruz BURANOVA. Tibbiyot sohasida maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP) ta’limiga intensifikatsion yondashuv aspektlari.....224
Dilorom MUSTAFAYEVA. O‘zbek talabalariga rus tilini o‘rgatishda muammoli-konstruktiv muloqotninig o‘rni 241
Malika ALIMARDONOVA. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining ingliz tilida akademik yozuv malakalasini takomillashtirishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan baholash.....263
Sevara ABDURAXMONOVA. Samarador so‘z boyligiga oid bilimlarni Lex30 yordamida baholash: leksik kompetensiyaga ko‘p o‘lchovli yondashuv 280
Maftuna ABDURASULOVA. Ingliz tilini chet tili sifatida o‘rgatishda gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish: vazifaga asoslangan ta’lim yondashuvi.....296

СОДЕРЖАНИЕ

ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Зохид САДИКОВ. О способах перевода древнетюркских ситуативных реалий на современные языки 3
Ирода КАХАРОВА. Синтаксические и деривационные особенности особых слов в английском и узбекском языках 18
Ирода ТУРАМУРАТОВА, Виктория ГАФУРОВА. Языковая репрезентация гендерной роли женщины в испанском языке.....38
Дильмурад ЭШАНКУЛОВ. Язык, образование и культура в период правления Караханидов 56
Шохрух ЖУРАЕВ. Семантические особенности латинских и греческих лексем, обозначающих личность официальных документах 70

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Райхон НАЗАРОВА. Исследование эволюции повествовательных методов и традиций в развитии жанра исторического романа.....88
Дильрабо ТАХИРОВА. Изображения детства в художественных произведениях Сьюзан Хилл.....105
Нилуфар КУРБОНОВА. Эволюция жанра «хоррор» в английской литературе .. 127
Шалола ДАВЛАТОВА. Творческий путь Роберта Бернса 143

ТЕОРИЯ ВА ПРАКТИКА ПЕРЕВОДА

Дилобар АБДУХАЛИЛОВА. Вопросы адекватности и эквивалентности: проблемы перевода поэзии Гёте.....163

МЕТОДИКА

Феруза РАШИДОВА, Нилюфар ТИЛЛАЕВА. Развитие навыков письма посредством интеграции семинара Сократа и таксономии Блума.....181
Марион ГРАЙН. Идентичность в немецком языке как иностранном и немецком языке как втором языке и литературе.....197
Гузаль НУРМАТОВА. Эффективность корпусных подходов в понимании студентами EFL научной терминологии в области нанотехнологий 210
Дилафруз БУРАНОВА. Аспекты интенсификационного подхода к преподаванию английского языка для специальных целей (ESP) в медицинской сфере.....224
Дилором МУСТАФАЕВА. Роль проблемно-конструктивного диалога в обучении русскому языку студентов-узбеков.....241
Малика АЛИМАРДАНОВА. Роль оценивания в совершенствовании навыков академического письма у будущих учителей английского языка.....263
Севара АБДУРАХМАНОВА. Оценивание знаний эффективного словарного запаса посредством lex30: многосторонний подход к лексической компетенции 280
Мафтуна АБДУРАСУЛОВА. Развитие навыков говорения при изучении английского языку как иностранного: подход к обучению, основанный на задач.....296

CONTENTS

LINGUISTICS

Zokhid SADIKOV. Methods of Translating Ancient Turkic Situational Realities into Modern Languages.....3
Iroda KAXAROVA. Syntactic and Derivational Features of Special Words in English and Uzbek Languages 18
Iroda TURAMURATOVA, Viktoriya GAFUROVA. An Analysis of Gendered Language and Representations of Women in Spanish 38
Dilmurod ESHANKULOV. Language, Education and Culture in the Period of the Karakhanides.....56
Shohruh JURAEV. Semantic Features of Latin and Greek Vocative Lexemes in Official Documents 70

LITERARY STUDIES

Raykhon NAZAROVA. Tracing the Evolution of Narrative Techniques and Conventions in the Development of the Historical Novel 88
Dilrabo TOKHIROVA. Portrayals of Childhood in the Literary Works of Susan Hill 105
Nilufar KURBANOVA. Evolution of Horror Genre in English Literature.....127
Shalola DAVLATOVA. The Journey of Robert Burns as a Poet.....143

THEORY AND PRACTICE OF TRANSLATION

Dilobar ABDUKHALILOVA. Issues of Adequacy and Equivalence: Translation Challenges Posed by Goethe's Poetic Oeuvre 163

METHODOLOGY

Feruza RASHIDOVA, Nilufar TILLAEVA. Enhancing Writing Skills Through the Integration of Socratic Seminars and Bloom's Taxonomy 181
Marion GREIN. Identity within German as a Foreign and German as a Second Language and Literature 197
Guzal NURMATOVA. The Effectiveness of Corpus-Based Approaches in Improving EFL Students' Comprehension of Scientific Terminology in Nanotechnology.....210
Dilafruz BURANOVA. Aspects of an Intensification Approach to English for Specific Purposes (ESP) Teaching in the Medical Field.....224
Dilorom MUSTAFAEVA. The Role of Problem-Constructive Communication in Teaching Russian to Uzbek Students 241
Malika ALIMARDONOVA. Assessment Based on Competency Approach in Improving Academic Writing Skills in English of Future English Language Teachers.....263
Sevara ABDURAXMONOVA. Assessing Productive Vocabulary Knowledge With Lex30: A Multi-Dimensional Approach To Lexical Competence 280
Maftuna ABDURASULOVA. Enhancing Speaking Skills in EFL: a Task-Based Instruction Approach.....296

Philology Matters / ISSN: 1994 – 4233
Uzbekistan State World Languages University
2024 Vol. 50 No. 3
LINGUISTICS
DOI: 10.36078/987655013

Received: July 2, 2024
Accepted: September 22, 2024
Available online: September 25, 2024

Dilmurod Eshanqulov

Mustaqil izlanuvchi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

QORAXONIYLAR DAVRIDA TIL, TA’LIM VA MADANIYAT

ANNOTATSIYA

Maqolada qoraxoniylar davlati, bu davlat aholisining tili, madaniy hayoti, o‘sha davrda yaratilgan adabiy asarlar hamda o‘zbek elatining shakllanishi haqida fikr yuritilgan. Tadqiqotdan ko‘zlangan maqsad – Surxondaryodagi qarluq shevalarining leksik xususiyatlarini shevashunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganishdir. Mazkur maqsaddan kelib chiqib, maqolada yurtimiz hamda xorijlik tilshunos va shevashunos olimlarning mavzuga doir fikr-mulohazalari muayyan tasnifiy guruhlarga ajratib tahlil qilingan.

Tadqiqotda tavsiflash, umumlashtirish, qiyosiy-tarixiy va semantik tahlil metodlaridan samarali foydalanilgan. Natijada soha mutaxassislari tomonidan ilgari surilgan til va sheva birliklariga oid ilmiy mushohadalar va mulohazalar tizimlashtirilgan, ayrim terminlarning qo‘llanilishiga oid zarur xulosalar chiqarilgan. Bundan tashqari, maqolada qoraxoniylar davrida yaratilgan ilmiy va badiiy asarlar to‘g‘risidagi turli yondashuvlarga asoslangan fikrlar ham o‘z ifodasini topgan.

Xususan, Qoraxoniylar X asrda Movaraunnahr va Sharqiy Turkiston o‘rtasidagi mintaqada tashkil etilgan davlat bo‘lib, ular yozma til sifatida xoqoniy turkchasini ishlatgani haqida fikrlar bildirilgan. Qoraxoniylar ushbu davrda uyg‘ur yozuvi bilan bir qatorda arab yozuvidan ham foydalanganligiga e’tibor qaratilgan. Dialektlar ichida qarluq yoki qarluq-chigil dialekti Movarounnahr va unga tutash bo‘lgan hududlar aholisi orasida qat’iy o‘rnashgan.

Qarluqlarning keyingi avlodlari O‘zbekiston hududida XVIII – XX asrlar boshlarida Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo

Dilmurod Eshankulov

Independent Researcher
Alisher Navoi Tashkent State University
of the Uzbek Language and Literature
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: dilmurodeshankulov109@gmail.com
ORCID iD: 0009-0001-5858-1966

LANGUAGE, EDUCATION AND CULTURE IN THE PERIOD OF THE KARAKHANIDES

ABSTRACT

The article explores the Karakhanids’ state, language, cultural life, and literary output, as well as the formation of the Uzbek population. The primary objective of the study is to investigate the lexical features of Qarluq dialects in Surkhandarya through dialectology. To achieve this, the opinions and comments of both national and international linguists were analyzed and classified into specific groups.

The study utilized descriptive, generalizing, comparative-historical, and semantic analysis methods. As a result, the scientific opinions and observations regarding language and dialect units put forth by experts were systematized, and conclusions were drawn regarding the use of certain terms. Additionally, the article discusses various approaches to scientific and artistic works created during the Karakhanids.

In the 18th-early 20th centuries, later generations of the Qarluqs inhabited the Samarkand, Bukhara, Kashkadarya, and Surkhandarya regions of Uzbekistan. The research examines the Qarluq dialect from a dialectological and areal linguistics perspective in the context of several villages, such as Qallik, Qallukon, and Qarluqkhana, in the Bukhara oasis. Furthermore, the study demonstrates that at the beginning of the last century, there was a growing interest in studying Uzbek folk dialects, and Russian and Uzbek scholars conducted extensive research on Uzbek dialects, which was based on scientific principles.

The research delves into the spread of the Qarluqs and their dialect within the Uzbek language massif and describes the relationship

viloyatlarida yashaganlar. Buxoro vohasida Qalliq, Qallukon, Qarluqxona nomlari bilan atalgan bir qancha qishloqlar mavjud bo‘lganligi dialektologik va areal lingvistika nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. Shuningdek, o‘tgan asr boshlarida o‘zbek xalq shevalarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish kuchaygani, rus va o‘zbek olimlari tomonidan o‘zbek tili lahjalarini tadqiq etish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilgani ko‘rsatilib, ular ilmiy asosda baholangan.

Tadqiqotda qarluqlar va ular lahjasining o‘zbek tili massivida tarqalishi tavsif qilinib, Surxondaryo qarluq shevalarining boshqa areal qarluq shevalariga munosabati tavsif qilingan. Qoraxoniylar davrida ta’limga bo‘lgan e’tibor, o‘sha davrda yashab ijod qilgan buyuk mutafakkir olimlarning ishlari haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: turkiy til, o‘zbek tili, sheva, o‘zbek shevalari, qoraxoniylar, qarluq-chigil, lahja, hoqoniya, o‘g‘uz, qipchoq, elat.

between the Surkhandarya Qarluq dialects and other regional Qarluq dialects. The article also provides important information about the emphasis placed on education during the Karakhanid period and the works of renowned thinkers and scientists who lived and created during that time.

Key words: Turkish language, Uzbek language, dialect, Uzbek dialects, Karakhanids, Qarluq-chigil, dialect, Hakhaniya, Oghuz, Kipchak, elat.

KIRISH

Shevalarning lug‘aviy tarkibi, qo‘llanish hududi va chegaralarini belgilash orqali ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Ularni o‘rganish bo‘yicha xorij va o‘zbek tilshunosligida bir qancha salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Qayd etish lozimki, dialektlarning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish asta-sekinlik bilan rivojlanib, uning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqishga oid tadqiqotlar yuzaga keldi [Yartseva, 1990].

O‘zbek tilshunosligida turkiy xalqlar shevalarini o‘rganish bo‘yicha M.Koshg‘ariy, M.Zamaxshariy, A.Navoiy kabi adiblar ham kuzatishlar olib borganligi ma’lum. O‘n to‘rt yil davomida turkiy ellarni kezib material to‘plagan, 6800dan ziyod turkiy so‘zlarni guruhlagan M.Koshg‘ariy ba’zi turkiy xalq va elatlarning ikki tilli ekanini, bu, o‘z navbatida, xalq tilida ayrim salbiy jihatlarni keltirib chiqarayotganligini qayd etadi.

O‘tgan asr boshlarida o‘zbek xalq shevalarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish kuchaydi. Rus va o‘zbek olimlari tomonidan o‘zbek tili lahjalarini tadqiq etish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Rus olimlaridan Y.D. Polivanov o‘zbek shevalaridagi vokalizm to‘g‘risida tadqiqot olib bordi [Polivanov, 1928; 306]. A.Borovkov esa shevalarni tadqiq etar ekan e’tiborini o‘zbek-tojik ikki tilliligiga qaratdi [Borovkov, 1952]. M.Sh. Shiraliyev [Shiraliyev, 1973], N.Z. Gadjiyeva [Gadzhiyeva, 1979] kabi olimlar ham turkiy tillar shevalarini o‘rganish bo‘yicha salmoqli ishlarni amalga oshirdilar.

O‘zbek dialektologiyasida shevalarni yaxlit holda o‘rganishga A.Fitrat, M.Behbudiy, G‘.O. Yunusov, Y.D. Polivanov [Polivanov, 1935], K.Yudaxin, A.K. Borovkov, V.V. Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov, A.Shermatov, S.Ibrohimov,

F.Abdullayev, M.Mirzayev, X.Doniyorov, B.Jo‘rayev, O.Madrahimov, N.Rajabov kabi olimlarning mehnati samarasi o‘laroq monografik tadqiqotlar yaratildi. O‘zbek shevalarining leksik xususiyatlari A.To‘raqulov, N.Murodova, M.Saidova, M.Begaliyev, R.Yo‘ldoshev, A.Allaberdiyev, Y.Bobojonov, N.Shoimova kabi zahmatkash olimlarning ishlarida tarixiy-qiyosiy usuldan foydalanilgan holda tadqiq qilingan [To‘raqulov, 1974]. X.Doniyorov [Doniyorov, 1965], D.Ishondadayev [Ishondadayev, 1967], K.Yusupov [Yusupov, 1974], H.G‘ulomov [G‘ulomov, 1983], B.Djaborov, O.Azizov, J.Bo‘ronov, T.Rahmonov, M.Mirzayev [Mirzayev, 1969], R.Rajabova, R.Xidirov, K.Sh. Shoniyozov [Shoniyozov, 2001], M.Zokirov [Zokirov, 2007], Sh.Jo‘rayev [Jo‘rayev, 2018] kabi olimlar tomonidan yaratilgan tadqiqotlarda ham shevalar bo‘yicha qiziqarli ma’lumotlar berilgan.

Elatning shakllanishida til ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbek elatining tashkil topishida qarluq-chigil tili yetakchi ro‘l o‘ynagan. O‘zbek tili boshqa turkiy tillardan ko‘p shevaliligi bilan farqlanadi. Professor Y.D. Polivanov o‘z ilmiy ishlarida asrimiz birinchi choragidayoq o‘zbek tili o‘zining ko‘p shevaliligi bilan boshqa turkiy tillardan ajralib turishi haqida ma’lumot bergan edi [Ashirboyev, 2021; 176]. Ma’lumki, o‘zbek tili qarluq, qipchoq, o‘g‘uz lahjalarini o‘z ichiga oladi. Bu lahjalar o‘zaro fonetik, leksik, grammatik jihatdan bir-biridan farq qiladi. Jumladan, qarluq lahjasi, boshqa lahjalardan “e” lovchi, “o” lovchi, “u” lovchi va “i” lovchiligi bilan farq qiladi. Qayd etish kerakki, qarluq shevasi akademik Sh.Shoabdurahmonov va V.Reshetov kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan [Reshetov & Shoabdurahmonov, 1978; 231].

TADQIQOT METODLARI

Ushbu tadqiqot o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra tilshunoslik hamda dialektologiyaning tayanch tushunchalari – til va sheva birliklarini tasniflash, ularning nutq jarayonida ayni bir vazifani bajarish uchun umumiylik hosil qilish mumkinligini ko‘rsatish va tasdiqlashga xizmat qiladi. Sohaga oid maxsus izlanishlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, Surxondaryo qarluq shevalari u yoki bu tadqiqotlarda tilga olingan bo‘lsa-da, bu arealdagi shevalarning xususiyati, xususan, leksik xususiyatlari hozirga qadar o‘rganilmagan. Shu sababli ishni yoritishda mamlakatimiz va xorijiy olimlarning mavzuga oid bildirilgan fikr-mulohazalarini tilshunoslik aspektida muayyan guruhlarga ajratib, tasniflash maqsadida tahlil, umumlashtirish, qiyoslash, qiyosiy-tarixiy va semantik tahlil metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR

O‘zbek adabiy tili yuzaga kelganidan shu kunga qadar shu tilda yaratilgan ko‘plab asarlar tufayli o‘z normalarini turli xil tarixiy davrlarda takomillashtirib bordi. O‘zbek adabiy tilining rivoji va turg‘unlashuvi ko‘p jihatdan unga tayanch bo‘lgan o‘zbek shevalarini aniqlab olishga bog‘liq edi. Shu jihatdan o‘zbek adabiy tilini umumxalq tiliga yaqinlashtirish choralari ko‘riladi [Shoabdurahmonov, 1961; 13-14]. Keyinchalik o‘zbek adabiy tili asosiga markaziy shahar shevalari olinib, singarmonizmdan voz kechilishi, tarixan umumo‘zbek adabiy tilining rivojlanishida shahar shevalariga tayanish adabiy til manbalarini to‘g‘ri aniqlashga yordam berdi [Shoabdurahmonov, 1977; 3].

O‘tmishda genetik jihatdan turlicha bo‘lgan o‘zbek tili shevalarining birlashishi uchun xalqning iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalishi keng yo‘l ochib berdi. Hozirgi vaqtda dialektal xususiyatlarning takomillashishi faqat qo‘shni shevalarning o‘zaro munosabati natijasida emas, balki adabiy tilning kuchli ta’siri natijasida ro‘y bermoqda. Bu hol esa o‘zbek xalqi hayotida ro‘y bergan yangi munosabatlarning o‘sishi, kengayishi bilan ham bog‘liqdir. Lekin o‘zbeklarning ajdodlari alohida xalq (elat) bo‘lib shakllanayotgan davrlarda qaysi qabilaning tili ustunlik qilganligi hamda X – XIII asrlarga xos adabiy tilning tashkil topganligi haqida tilshunos olimlar hanuzgacha qat’iy bir fikrga kelganlaricha yo‘q.

Elshunoslik nazariyasiga tayangan holda ta’kidlash kerakki, o‘zbeklarning ajdodlari alohida etnik birlik (elat) bo‘lib shakllanayotgan davrlarda shu elat fuqarolariga xos umumiy til ham shakllangan. Yangidan vujudga kelgan elat ikkinchi bir elatdan o‘z tili bilan farq qilishi kerak. Agar o‘zbeklarning ajdodlarini alohida etnik birlik (elat) bo‘lib shakllanish vaqtini IX–X asrlar deb hisoblaydigan bo‘lsak, uning elat tili ham shu asrlar ichida shakllangan bo‘lishi mumkin. Akademik Sh.Shoabdurahmonov hozirgi o‘zbek shevalarini uch guruhga bo‘lib, shulardan birini qarluq lahjasi deb ataydi [Shoabdurahmonov, 1971; 397]. Qarluq tili ilk o‘rta asrlarda vujudga kelgan qadimiy turkiy tillardan hisoblanadi. Tilshunos olim professor N.A. Baskakov qadimgi turkiy tillarni tasniflab, ularni bir necha til guruhlariga bo‘lib, ularning ichida qarluq tili guruhini ham tilga olgan [Baskakov, 1960; 177]. Uning ta’kidlashicha, qarluq til guruhi qoraxoniylar davlatida, ya’ni X–XI arslarda paydo bo‘lgan.

Hozirgi davr fan yutuqlarini hisobga olib aytish mumkinki, qoraxoniylar davlati deb atalgan siyosiy tuzum X–XI asrlarda emas, IX–X asrlarda tashkil topgan, “Qoraxoniy” iborasi esa sharqshunos olim A.A. Grigorev tomonidan fanga shartli ravishda kiritilgan. Shu ma’lumotlarga asoslanib, qarluq dialekti IX–X asrlarda, o‘zbeklarning ajdodlari alohida elat bo‘lib tashkil topish davri bilan bir vaqtda shakllangan desak, haqiqatga yaqin bo‘ladi. Qarluq-chigil dialekti VIII–X asrlarda Yettisuvda, Sharqiy Turkistonning g‘arbiy qismida, Sirdaryoning o‘rta oqimlarida, Movarounnahrda keng tarqalgan. Bu til Qoraxoniylar davlatining asosiy tili bo‘lgan.

Shu davrlarda Sirdaryoning quyi oqimlarida, Nurato tog‘ etaklarida o‘g‘uz tili dialekti ham – barqarorlashib borgan. XI asr boshlarida Sirdaryoning quyi oqimlariga qipchoqlarning katta guruhi kelib o‘rnashadi va shu asr davomida qipchoq tili Movarounnahrning ayrim hududlariga tarqaladi.

Qipchoq tili qipchoq bo‘lmagan, Dashti qipchoqda yashovchi qabilalar tiliga ham ta’sir qiladi. Demak, XI–XII asrlarda G‘arbiy qoraxonlilar davlati hududida turkiy tilning uch yirik (qarluq-chigil, o‘g‘uz va qipchoq) dialekti mavjud bo‘lgan. Bu dialektlardan tashqari qabilaviy hamda hududiy dialektlar ham bo‘lgan. Biroq tilga olingan uch yirik dialektning ta’sir doirasi juda keng bo‘lgan.

Dialektlarning ichida qarluq yoki qarluq-chigil dialekti Movarounnahr va unga tutash bo‘lgan hududlar aholisi orasida qat’iy o‘rnashib, G‘arbiy qoraxonlilar davlatining tili bo‘lib qolgan. Shuni aytib o‘tish kerakki, X asrning ikkinchi yarmi va XI asrlarda qoraxoniylar davlati hududida mavjud til bundan oldingi asrlardagi

(VIII–X asr o‘rtalarigacha) qarluq-chigil tilidan biroz farq qilgan. U davrda bu tilga qarluq qabila ittifoqi va keyin davlati tarkibidagi qabilalarning ta’siri kuchli bo‘lgan [Shoniyozov, 1999; 12]. Qarluqlar davrida (IX–X asr), ular hukmronlik qilgan katta hududda bir qancha o‘troq (turk, tojik), yarim o‘troq va yarim ko‘chmanchi etnik guruhlar yashaganlar. Mahmud Koshg‘ariy o‘z asarlarida bu hududda yashovchi turkiyzabon aholining lahjalarida farq bo‘lganligini ko‘rsatib o‘tgan. Shu bilan bir vaqtda olim ularning barchasi tushunadigan umumiy til (elat tili) mavjud bo‘lganligini ham qayd qilgan [Koshg‘ariy, 1960; 65]. Mahmud Koshg‘ariy ana shu ko‘pchilikka tushunarli bo‘lgan tilni “hoqoniya” tili deb atagan. Mazkur til IX–X asrlar davomida shakllangan bo‘lib, keyingi asrlarda yana ham takomillashib borgan. Qarluqlardan keyingi yirik etnos chigillar bo‘lgan [Koshg‘ariy, 1960; 66].

Har ikki qardosh qabilalarning tillarida farq bo‘lmagan, ularning lahjalari (qarluq-chigil) IX–X asrlarda o‘zbek elatining asosiy tili bo‘lgan, desak xato bo‘lmaydi. O‘sha davrlarda qarluq va unga qardosh qabilalarning ko‘pchiligi o‘troqlashib, qadimdan turg‘un yashab kelayotgan turkiy aholi bilan aralashib, keyingilarning ta’siri bilan qarluq-chigil tiliga arab-fors so‘zlarining kirishi tobora ko‘paygan edi.

Ma’lumki, somoniylar davrida Movarounnahr va unga tutash hududlarda ilm-fan keng taraqqiy etgan. Katta shaharlarda, masalan, Buxoro va Samarqandda ilmning bir necha sohalaridagi mutaxassislar (tibbiyot, falsafa, tarix, mantiq, astronomiya, geografiya va boshq.) yashab ijod qilganlar. Ularning ayrimlari (masalan, Ibn Sino) arab, fors va turkiy xalqlar hududida tanilgan edi. Movarounnahr va Xuroson shaharlarida bir necha o‘nlab shoirlar yashab ijod qilganlar [Abdullayev, 1984]. Buxoro va Samarqandda yirik kutubxonalar bo‘lib, ularda arab-fors dunyosida ma’lum bo‘lgan turli sohalardagi kitoblar to‘plangan. Kitoblar shahar bozorlarida ham sotilgan.

Arab va fors tillarida asar yozish G‘arbiy qoraxoniylar davrida ham davom etgan. Bu tilda XI–XII asrlar davomida Buxoro, Samarqand, Shosh va Farg‘ona shaharlarida shoirlar, adiblar, tarixchilar, faylasuflar va boshqa soha mutaxassislari tomonidan o‘nlab asarlar yozilgan. Demak, qoraxoniylar davrida ilm-fan so‘nmagan, u davom etib, taraqqiy etgan. Olim-u shoirlarga xoqonlar homiylik qilib kelganlar.

Qarluq-qoraxoniylar davrida arab, fors tillarida yozilgan kitoblar bilan bir paytda turkiy tilda yozilgan asarlar ham paydo bo‘la boshlagan. Lekin ularning ko‘pchiligi bizgacha yetib kelmagan. IX asr boshlarida Misrda abbosiylar xalifaligida yashagan ayrim turkiylar tomonidan she’r va qasidalar yozilganligi ma’lum. Ana shundan qiyos qilib, Movarounnahrda ham bu tilda asarlar yozilgan bo‘lishi kerak, desak xato bo‘lmaydi. XI–XII asrlar davomida xalq og‘zaki ijodi ham keng rivojlangan. Dada qo‘rqud dostonlari va O‘g‘uzxon haqidagi xalq dostonlari shu asrlarga kelib nafaqat ko‘chmanchi, yarim ko‘chmanchi va yarim o‘troq qabilalarda, balki turg‘un yashovchi turkiy aholi orasida ham keng tarqalgan. “Dada qo‘rqud” dostoni VII–VIII asrlarda xazarlarda mavjud bo‘lgan, degan qarash bor [Esin, 1978; 159].

Bu doston Sirdaryo sohillarida yashovchi o‘g‘uzlar va Yettisuvda yashovchi qarluqlarda ham VIII–IX asrlar davomida tarqalgan bo‘lishi kerak. Ushbu doston ilk bor Markaziy Osiyoda yashovchi turkiy xalqlar orasida vujudga kelgan bo‘lib,

keyinchalik G‘arbiy turk xoqonligi davrida Yettisuvdan ko‘chib Volga bo‘ylariga o‘rnashgan dulu qabilasiga mansub guruhlar (VII asr) orasida ham keng tarqalgan. Qarluqlar davrida boshqa xalq dostonlari ham mavjud bo‘lgan bo‘lishi kerak. Ba’zi fikr-mulohazalarga qaraganda, “O‘g‘uznoma“ dostoni IX–X asrlarda paydo bo‘lgan [Shcherbak, 1959; 99]. Doston tilida “Qarluq-uyg‘ur” tilining atamalari mavjudligi tilshunos olimlar tomonidan qayd etilgan [Shcherbak, 1959; 103]. Balki, shu davrlarda turkiy xalqlarning sevimli dostoni “Alpomish” ham ommalashib ketgandir.

Shunday qilib, o‘zbek elati XI asr o‘rtalarida qoraxoniylar hududida o‘z adabiy tiliga va yozma hamda og‘zaki adabiyotiga ega bo‘ladi. O‘zbeklarning ajdodlariga xos umumelat madaniyati shakllanishi jadal taraqqiy etib boradi. N.A. Baskakov ham qarluq til guruhi X–XI asrlarda paydo bo‘lgan deb yozgan edi. K.Shoniyozov bergan ma’lumotga ko‘ra, qarluq til guruhi X–XI asrlarda emas, balki IX–X asrlarda tashkil topgan. XI–XII asrlar davomida qarluq tili yana ham keng taraqqiy etib, o‘sha davrda adabiy til darajasiga ko‘tarilgan. Bu tilda XI–XIII asrlar davomida bir qancha asarlar yozilgan.

Shu asarlar ichida eng e’tiborlilari Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Abu Abdulg‘afur al-Almoniy (XI asr) tomonidan yozilgan “Tarixi Koshg‘ar”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq”, Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar”i, O‘rta Osiyoda yozilgan (XII–XIII asrlarda) “Tafsir” va boshqalar [Borovkov, 1949; 67]. Bu asarlar turkiy tilning qarluq shevasida yozilganligi yirik tilshunos olimlar tomonidan tan olingan [Shcherbak, 1959; 108].

Qoraxoniylar davlati X asrda Movarounnahr va Sharqiy Turkiston o‘rtasidagi mintaqada tashkil etilgan. Ular davlat tili sifatida xoqoniy turkchasini ishlatganlar. Ushbu davrda uyg‘ur yozuvi bilan bir qatorda arab yozuvidan ham foydalanilgan. So‘z boyligi jihatidan eski turk tiliga yaqin uyg‘urcha til avvalgi davrda buddizm bilan bog‘liq so‘zlarning aksariyati o‘rniga islomga tegishli so‘zlarni o‘z ichiga olgan. 1069-yili Yusuf Xos Hojib tomonidan yozilgan va 6645 baytdan iborat “Qutadg‘u bilig” hamda 1074-yili Mahmud Koshg‘ariy tomonidan yozilgan “Devonu lug‘atit-turk” asari arablarga turkiy tilni o‘rgatish maqsadida yaratilgan turk tilining birinchi lug‘ati hamdir. Adib Ahmad Yuknakiy tomonidan yozilgan va 101 to‘rtlikdan iborat “Hibat ul-haqoyiq”, Ahmad Yassaviy tomonidan yozilgan “Devoni Hikmat” asarlari turkiy tilning asosiy namunalaridir. “Devoni lug‘atit-turk” asarida 8624ta, “Qutadg‘u bilig”da 2961ta, “Hibat ul-haqoyiq”da 1306ta so‘zning mavjudligi, qoraxoniylar turkiy tili juda katta so‘z boyligiga ega ekanligining ko‘rsatkichi bo‘la oladi [Özaydın ve başk., 2013; 124].

Qoraxoniylar turkiy tili birinchi islomiy adabiy tildir. U XI–XII asrlarda Qashqar, Sharqiy va G‘arbiy Turkistonda rivojlangan. X asrda Qoraxoniylar tomonidan islomning qabul qilinishi natijasida qo‘shni islom davlatlari bilan yaqin aloqalar o‘rnatildi. Ma’lumki, XIII–XV asrlarda Movarounnahr va unga tutash hududlarda turg‘un va yarim turg‘unlikda yashovchi aholining katta qismi turkiy tilli etnoslar edi. Ularning ko‘pchiligi shu hududda qat’iylashib qolgan qarluq dialektida so‘zlashgan. Bu davrlardagi qarluqlarning lug‘aviy fondi arab va fors-tojik so‘zlari bilan boyib, grammatik tizimi esa birmuncha takomillashgan.

Qarluq tilining taraqqiy etish darajasini XIII–XV va undan keyingi asrlarda yozilgan asarlar orqali bilib olish mumkin. Shuni ham ta'kidlash joizki, bu asrlarda yozilgan asarlarning tilida o'g'uz va qipchoq so'zlari ham sezilarli darajada mavjud edi.

X–XIII asrlarda turkislom dunyosida ilmiy tadqiqotlar juda rivojlangan edi. Olimlar hukmdorlar tomonidan qadrlangan. Shuningdek, o'sha davr olimlari Yevropaga ham kuchli ta'sir ko'rsatdilar. Fizika, matematika, astronomiya va mantiq bo'yicha 160ta asar muallifi Forobiy Aristotel g'oyalarini juda yaxshi sharhlagan. Shu sharhlari tufayli Farobiy ikkinchi muallim (muallimi soniy) deb nom olgan edi. G'arb dunyosida u "Al Farabius" nomi bilan shuhrat topgan, ko'plab asarlari lotin tiliga tarjima qilingan va darslik sifatida maktablarda o'qitilgan. Ibn Sino buyuk tibbiyot olimi va faylasufidir. Tibbiyot, mantiq, fizika va din falsafasi sohalarida 220ga yaqin asar yozgan. Ibn Sino g'arbliklar tomonidan "Tibbiyot hukmdori" unvoniga sazovor bo'ldi. Shuningdek, Beruniyning 110dan ortiq asarlari bor edi. U geografiya fanini islom olamida mustaqil bir fanga aylantirdi [Özaydın ve başk., 2013; 125].

Qoraxoniylar davlatida hukmdorlar ilmiy faoliyatga va olimlarga juda katta e'tibor berganlar. Shu bois, ilmiy faoliyat ancha yaxshilandi Toshkent, Bolosog'un, Koshg'ar va boshqa shaharlarning ahamiyati ortib san'at markazlariga aylandi. Qoraxoniy hukmdorlarining ilm-fanga bo'lgan muhabbati muhim o'zgarishlarga olib keldi va olimlarning sonini ko'paytirish imkonini berdi. Hukmdorlarning ta'lim faoliyatiga bunday ahamiyat berishlari, aslida, ikkita muhim omil bilan bog'liq edi. Birinchi sababi – islom dinini yaqinda qabul qilgan turk qabilalarining yangi e'tiqodlarini mustahkamlash va yangi e'tiqodlariga zid bo'lgan eski e'tiqodlarni yo'q qilish. Ikkinchisi – shialarga qarshi ushbu ta'lim muassasalari orqali sunniylar o'z e'tiqodlarini mustahkamlashi bo'lgan [Özaydın, 2001; 24].

Islom olamida dastlab ta'lim va tarbiya ishlari xususiy joylarda olib borilmadi, kuttab (maktab) deb nomlangan o'qituvchilar uylari va masjidlarda faoliyat olib borildi [Şahin, 2010; 70-71]. Boshqa tomondan madrasalar o'quv faoliyati nuqtayi nazaridan juda muhim o'rinni egalladi. Islom tarixida madrasalar ta'lim va tarbiya faoliyatida tobora muhim ahamiyat kasb etishi va auditoriyasi kengayishi natijasida paydo bo'lgan muassasalar hisoblanadi.

Qoraxoniylar tomonidan O'rta Osiyo shaharlarida qurilgan Samarqand, Buxoro, Toshkent, Bolasog'un, Yorkent, Qoshg'ar madrasalari muhim ma'rifiy markazlarga aylandi. Madrasalarda o'quv ishlari muayyan tartibda va tizimli ravishda olib borilar edi. Bu maskanda o'qish va yozish ta'limi bilan birga Qur'on, tafsir, shuningdek, diniy darslar o'qitilardi. Mamlakatdagi ta'lim tizimi samarali bo'lishi va rivojlanishiga faqat o'sha mamlakatdagi boshqaruv kuchi ko'magida erishish mumkin edi. Qoraxoniylarning hukmdorlari buni ta'minlaganligi sababli ta'lim tizimlari kun sayin rivojlanib bordi.

IX–X asrlarda Qarluq davlati hududida yashovchi xalqlar madaniyatida ham katta o'zgarishlar yuz berdi. Qarluq davlatida yashovchi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi qabilalarning katta qismi o'troqlashadi, shahar va qishloqlar soni ko'paydi. Islom dini barqarorlashib, ilm-ma'rifat taraqqiy eta boshladi. IX–X

asrlarda, ya'ni somoniylar hukmronligi va xorazmshohlar davrida Movarounnahr va Xorazmda madaniyatning turli sohalari, ilm-fan oldingi asrlarga nisbatan bir necha bor o'sib, islom diniga e'tiqod kuchaydi va Buxoro va Samarqand shaharlari Markaziy Osiyoning yirik diniy markazlari bo'lib qoldi.

Bu hududlarda yashovchi shahar va qishloq aholisi madaniyatining Sirdaryo sohillarida, Yettisuvda va Sharqiy Turkistonda yashovchi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholiga ijobiy ta'siri kuchli bo'lgan. Ilgari chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan qabilalarning ko'pchiligi o'troqlashib, islom dinini qabul qildi, ilmga intilish kuchaydi.

Qarluqlarning keyingi avlodlari O'zbekiston hududida XVIII–XX asr boshlarida Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida yashaganlar. Ular haqida batafsil tasavvur hosil qilish maqsadida ularning hozirgi O'zbekiston hududida XVIII–XX asr boshlarida yashagan guruhlari joylashishi, taxminiy sonini qisqa izohlab o'tmoqchimiz.

Qarluqlar juda tarqoq holda Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida yashaganlar. Samarqand viloyatining Oqtosh tumanida qarluqlar bir necha qishloqlarda yashaganlar. Shulardan biri Katta Qarluq – Oqtoshdan (oldingi Ziyovuddin) sharqda, undan 2 km uzoqlikda joylashgan qishloq bo'lib, 1926-yilgi ma'lumotga binoan, u yerda 21 xonadon (jami 72 kishi) yashagan. Ikkinchi qishloq Yuqori Qarluq deb atalib, Katta Qarluqdan 8–10 km shimoli-sharqda joylashgan. Bu qishloqda qarluqlardan 48 xo'jalik yashagan. Har ikki Qarluq qishlog'ining aholisi qarluqlardan iborat bo'lib, ularning Buxoro vohasida joylashgan qarluqlar bilan qarindoshlik aloqalari bo'lgan, bir-birovlarinikiga bordi-keldilari uzluksiz davom etib kelgan. Tarixiy ma'lumotlardan aniq bo'lishicha, Miyonqolda XVIII asrda qarluqlarning salmoqli guruhi yashagan.

Mang'it sulolasining birinchi xoni Muhammad Rahimxon (1753–1758) tomonidan Qarshi cho'lidan bir qancha qarluq oilalari Miyonqolga majburan ko'chirib keltirilgan. XIX asrning birinchi yarmida Buxoroda bo'lgan ingliz sayyohi Aleksandr Berns Karmina (hozirgi Karmana)da qarluqlardan tashkil topgan 600 nafar otliq askar saqlanganligini qayd qiladi. Bu askariy qism, asosan, Miyonqol qarluqlaridan tuzilgan. Keyinchalik Miyonqol hududida yashovchi qarluqlarning ko'pchiligi mahalliy aholiga aralashib ketgan.

Aniq bir qishloqda zich yashab kelgan qarluqlargina XX asrgacha o'z etnik nomlarini saqlab qolganlar. Qarluqlarning kattagina guruhi Buxoro vohasida joylashgan. Bularning ham ko'pchiligi o'tgan asrlar davomida tub yerli aholi bilan qorishib ketgan, lekin ularning juda oz qismi o'z etnik nomini XX asr boshlarigacha saqlab qolgan. 1925-yili Shahrud kanali bo'yida yashagan qarluqlardan 2175 kishi ro'yxatga olingan.

Buxoro vohasida Qalliq, Qallukon, Qarluqxona nomlari bilan atalgan bir qancha qishloqlar mavjud bo'lganligi XX asr boshida tuzilgan aholi yashaydigan joylar ro'yxatida qayd etilgan. Bir necha qarluq qishlog'i Kogon tumanida joylashgan. Bularning uchtasida yashovchi aholi o'zlarini o'zbek deb yozdirganlar.

Bu qarluq qishloqlarida oldin yashab kelgan qarluqlar allaqachon o'z etnik

nomlarini unutib yuborganlar, albatta, ularning nomlari faqat joy nomlarida (etnotoponimlar bo‘lib) saqlanib qolgan edi. Asr boshida Kogon shahrining janubi-g‘arbida, Tutikunda qishlog‘i yaqinidagi Qarluq qishlog‘ida qarluqlardan 18 xo‘jalik yashagan. Shu tumanning Cho‘li Qalliq qishlog‘ida (keyinchalik bu qishloq Uba-Cho‘li deb nomlangan) qarluqlardan 10-12 xo‘jalik yashagan. Cho‘li Qalliq qishlog‘i yaqinida yana bir Qarluq qishlog‘i bo‘lib, bunda 100 xo‘jalik yashagan. Shulardan 70 xo‘jalik qarluqlar bo‘lib, qolganlari boshqa o‘zbek guruhlaridan bo‘lgan. Kogon tumanining markaziga yaqin joyda, buzilib ketgan Hazrati Mirkulol masjidining shimoli-sharqiy tomonida Qarluq qishlog‘i joylashgan bo‘lib, bu qishloqda asr boshida qarluqlardan 10 xo‘jalik yashagan, ammo 20-yillarda ulardan faqat 3-4 oila qolgan.

Buxoro shahridan shimolda, G‘ijduvon tomon ketishda, Gala Osiyo qishlog‘idan o‘tgach, Qarluq qishlog‘i bo‘lib, bu qishloqda qarluqlardan 110 xo‘jalik yashagan. Mazkur qishloq aholisi Miyonqol qarluqlari bilan qarindoshlik aloqasida bo‘lib kelgan. Ammo XX asrning o‘ttizinchi yillari bularning ko‘pchiligi “quloq” deb nohaq, surgun qilib yuborilgan, bir qanchasi qamalib bedarak ketgan. Shu asrning elliginchi yillari bu qishloqda qarluqlardan faqat 6 oila qolgan edi. G‘ijduvon shahrining shimolida (G‘ijduvon tumani doirasida) ikkita Qarluq qishlog‘i mavjud.

Bu qishloqlarda yashovchilar hozirda o‘zlarini o‘zbek deb ataydilar. Ammo qarluq atamasining joy nomi bo‘lib bizgacha saqlanib qolganligi qishloqda XIX asr oxiri XX asr boshlarida qarluqlar yashaganligidan dalolat beradi.

Buxoro viloyatining Olot tumanida ham qarluqlar yashaganlar. Bu tumanda Qarluq deb atalgan joyda 1925-yili qarluqlardan 14 xo‘jalik yoki 53 kishi ro‘yxatga olingan. 1954-yili olib borilgan etnografik ekspeditsiya davomida aniq bo‘ldiki, qarluqlar Olot yaqinida uch yerda guruh bo‘lib yashaganlar.

Bular: Xasvoy Qalliq guruhi – 6 xo‘jalik; As’hoq Qalliq guruhi – 3 xo‘jalik; Churcho‘l Qalliq guruhi – 6 xo‘jalik (jami 15 xo‘jalik). Uch guruh qarluqlar shartli ravishda 1925-yili Qarluq Qishloq deb ro‘yxatga olingan. Xasvoy Qalliq guruhi yaqinida Muxtor qishlog‘i bo‘lib, bunda qarluqlardan 6 oila yashagan.

MUNOZARA

Bu qarluqlar o‘zlarini asr boshida o‘tgan yirik chorvador boy Botir qalliq degan kishining urug‘lari deb hisoblaydilar. Olot tumanida ayrim qarluq oilalari tarqoq holda yana Uza, Asa, Jen, Karaul, Quvachi deb nomlangan joylarda ham yashaganlar. Bularning ayrimlari hozir ham shu yerlarda yashaydilar. Ko‘plari ko‘chib, Buxoro viloyatining boshqa tumanlariga borib o‘rnashganlar. Olot tumanida yashovchi qarluqlar, xususan, Chur-cho‘l to‘pi qarluqlari hozirgi Muborak tumanidagi Qarluq qishlog‘i aholisi bilan qavm-qarindoshlik aloqasida bo‘lib, bir-birlariga qiz berib, qiz olib turganlar [Shoniyozov, 1999; 147].

Qarluqlarning ma’lum bir guruhi XIX asrning o‘ttizinchi yillari Qarshi shahrida ham yashaganligi tarixiy adabiyotlarda qayd qilingan. Ular Qarluqxona mahallasida joylashgan edilar. Shahar aholisi bularga “qovoq gulli qarluqlar” deb laqab qo‘ygan. Mazkur mahalla aholisi o‘tgan asr oxirlarida Qarshi begiga qarshi ko‘tarilgan isyonda qatnashib, bir mahalladan ekanliklarini boshqalardan ajratib tanib olish uchun

chekkalariga qovoq guli qistirib kurashda qatnashganlar.

XIX asr oxiri – XX asr boshlaridayoq Qarluqxona qarluqlari shahar aholisiga batamom aralashib, etnik nomlarini ham deyarli unutib yuborganlar. Elliginchi yillarda olib borilgan etnografik ekspeditsiya davrida mahallaning ikki nafar eng ulug‘ yoshdagi qariyalari ajdodlari qarluqlardan ekanliklarini arang esladilar, yoshlar esa bu haqda hech narsa aytolmadilar.

Surxondaryo viloyatining Sho‘rchi (hozirgi Oltinsoy) va Sariosiyo tumanlarida qarluqlar yashaydigan bir necha qishloqlar mavjud. Shulardan biri Sho‘rchi (hozirgi Oltinsoy) tumanidagi Qarluq qishlog‘i bo‘lib, bunda 1925-yil ma’lumotiga binoan, 120 xo‘jalik yoki 636 kishi yashagan. Mazkur qishloq Qarluq daryosining (Halqayer daryosining tarmog‘i) chap sohilida, uning yuqori qismida, tog‘ yaqinida joylashgan. Bu qishloqda yashovchi qarluqlarni Ipoq (Joy nomi) qarluqlari deb ham nomlaydilar (Halqayer daryosini mahalliy aholi Ipoq daryo deydi).

Qishloq aholisi XIX asr oxiri–XX asr boshlarida turg‘un hayot kechirib, asosan, dehqonchilik, qisman chorvachilik bilan shug‘ullangan. Ammo qishloq aholisi bu yerga qachon va qayerdan kelib o‘rnashganliklarini bilmaydi. Sho‘rchi (hozirgi Oltinsoy) tumanidagi Qarluq qishlog‘i aholisining ko‘pchiligi o‘zlarining qarluq qavmidan ekanliklarini esdan chiqarmaganlar. Qishloqda qarluqlardan tashqari, ayrim o‘zbek etnik guruhlari ham aralash yashaydilar. Masalan, qo‘ng‘irot, yuz, batash qavmiga taalluqli oilalar Qarluq qishlog‘ida yashovchi qarluqlar (qarluqlardan) boshqa etnik guruhlarga qiz bermaganlar, ammo qiz olganlar, bu esa qarluqlarning boshqa o‘zbek guruhlari bilan aralashish jarayonini tezlashtirgan. Jamoalashtirish davrlarida va undan keyin ham Qarluq daryosi bo‘ylarida yashovchi qarluqlarning ko‘plari oilalari bilan ko‘chib Sho‘rchi (hozirgi Oltinsoy) tumanidagi boshqa qishloqlarga borib yashaganlar. Sho‘rchi (hozirgi Oltinsoy) tumani qarluqlari Qarshi tomonlarda, Sariosiyo tumanida va Janubiy Tojikistonda ham qarluqlar borligini eshitganlar. Lekin ular bilan aloqalari bo‘lmagan.

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, Sho‘rchi (hozirgi Oltinsoy) tumani Qarluq qishlog‘ida yashovchi qarluqlar tashqi qiyofalari, tillari, urf-odatlari bilan Muborak tumanida yashovchi qarluqlarga o‘xshab ketadilar.

Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida qarluqlar quyidagi qishloqlarda yashaydilar: Tog‘chiyon, Bayqishloq Zag‘nivot, Pozilko‘chdi, Ko‘lmozor, Cholmiyon, Sarimozor, Buyropush, Neloba. Bu qishloqlarda yashovchi qarluqlar jami 500 uyli bo‘lgan. Shuning uchun ham bu Qarluqlarning barchasini “besh yuz uyli qarluq” deganlar. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Sariosiyo hududida joylashgan qarluqlarning ko‘pchiligi yarim o‘troqlikda kun kechirganlar. Ular bahor va yoz oylarida mollari bilan ko‘chib tog‘ yaylovlariga borib o‘tov, kapa qurib yashaganlar. Kech kuzda mollari bilan tog‘dan tushib, Tog‘chiyon va unga yaqin qishloqlarda qishlovni o‘tkazganlar. Bular qisman dehqonchilik bilan ham shug‘ullanganlar.

Sariosiyo tumani qarluqlari Janubiy Tojikistonning Regar tumanida va Chalamzor degan joyda yashovchi qarluqlar bilan qon-qarindoshlik munosabatida bo‘lib, bir-birlariga qiz berib, qiz olganlar. Chalamzor va uning atroflarida yashovchi qarluqlar vafot qilgan kishilarini ko‘pincha Tog‘chiyon qishlogidagi mozorga keltirib

dafn qilganlar. Mazkur odatdan Chalamzor qarluqlari ilgari Tog‘chiyon va unga yaqin yerlarda turib, keyinchalik ko‘chib ketgan degan xulosaga kelsak bo‘ladi.

Qarluqlarning katta bir guruhi Janubiy Tojikistonning ko‘plab tumanlarida yashagan. Etnograf va o‘lkashunos N.G. Malitskiy “XX asrning 20-yillarida bu tumanlarda qarluqlar Qaratog‘da, Qaratog‘ daryosi bo‘ylarida, Yavansoyning yuqori oqimlarida, Hisor viloyatida, Baljuon va Kulob tumanlarida yashaydilar” deb yozgan edi. Muallifning taxminicha, Tojikistonda joylashgan qarluqlarning umumiy soni asr boshida 7000 kishi bo‘lgan. Etnograf, professor B.X. Karmisheva ularning soni 7238 kishi bo‘lganligini qayd qiladi. Janubiy Tojikiston qarluqlari tarixga “Toxariston qarluqlari’ nomi bilan kirgan. Bular qarluqlarning eng keyingi qoldiqlari bo‘lishi kerak.

Janubiy Tojikiston qarluqlarining talay qismi Regar va Shahrinav tumanlarida joylashganlar. Regar va Shahrinav qarluqlarining tashqi qiyofasi, tili, turmush tarzi Muborak, Sho‘rchi (hozirgi Oltinsoy) va Sariosiyo qarluqlarnikidan deyarli farq qilmaydi [Shoniyozov, 1999; 151–153].

Demak, tilga olingan hududlarda yashovchi qarluqlar etnogenetik jihatdan uzviy bog‘liq bo‘lishlari kerak. Boshqacha aytganda, ularning ilk ajdodlari bir elat bo‘lib, turli davrlarda yuz bergan tarixiy voqealar tufayli tarqalib, har yerlarda joylashib qolganlar. Turk qarluqlarning qishloqlari, asosan, Surxondaryo bilan Kofirnihon daryolarining yuqori oqimlarida joylashgan.

XULOSA

Keltirilgan barcha fikr-mulohazalardan xulosa qilish mumkinki, qarluqlar Markaziy Osiyo davlatchiligi tarixida, madaniy taraqqiyotida muhim iz qoldirgan. Qarluqlar siyosiy kurash maydonidan allaqachon chiqib, etnik tarkibi o‘zgarib ketganligiga qaramasdan o‘zlarining etnik xususiyatlarida qarluq ekanliklarini asrlar davomida unutmasdan, bizgacha saqlab kelganlar.

Amudaryo va Sirdaryo hududlariga (Movarounnahrga) IX–X asrlarda qarluq qabilalaridan biri xalach qabilasi ham kelib o‘rnashib qolgan. Keyingi asrlarda bularning ko‘pchiligi mahalliy turkiy aholiga aralashib, qorishib, xalach nomini unutib yuborganlar. Lekin ularning ayrim guruhlari XX asr boshlarigacha (hozir ham) etnik nomlarini saqlab qolganlar. Shu guruhlardan biri Janubiy Tojikistonda, Kofirnihon daryosining quyi sohillaridagi (sobiq Kulob bekligida) beshta qishloqda (boshqa etnik guruhlar bilan birga) yashayotganligi etnograf B.X. Karmisheva tomonidan qayd qilingan. Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asaridan ma’lum bo‘lishicha, Vaxsh daryosining quyi oqimida ham xalachlar yashaganlar. Keyingi asrlarda ular mahalliy aholiga aralashib ketgan bo‘lishi kerak. Xalachlar o‘tmishda Buxoro vohasida ham yashaganlar. Ammo XIX asr boshlarida ular batamom o‘troqlashib, mahalliy aholiga qorishib ketganlar. Vohada XX asr boshlarida xalach nomi bilan bir necha qishloqlarning saqlanib qolishi (ularning ayrimlari hozir ham bor) bu yerda o‘tmishda xalachlar yashaganligidan dalolat beradi.

Xalach qishloqlaridan bir nechtasi Buxoro viloyatining Galaosiyo, Vobkent va G‘ijduvon tumanlarida bo‘lganligi 1925-yili tuzilgan qishloqlar ro‘yxatida qayd

etilgan. Xalachlarning ayrim guruhlari tojik aholi bilan aralashib ketgan. XX asrning 60-yillarida etnograflar B.X. Karmisheva va Y.M. Pesherova ta'kidlaganidek, Nurota tog'laridagi Mujorom qishlog'ida istiqomat qilayotgan tojik qavmlaridan biri o'zlarini xalach deb nomlaganlar. Bu qavm mazkur qishloq aholisiga aralashib ketgan bo'lsa ham, ammo xalach ekanliklarini hanuzgacha unutmaganlar.

Qashqadaryoning yuqori oqimlarida xalachlarning ayrim guruhlari yashagan bo'lishi kerak. Shu daryoning yuqori qismida XX asrning yigirmanchi yillari Xalach qishlog'i ro'yxatga olingan, ammo qishloq aholisi o'zlarini xalach deb atamaganlar.

Qarluq qabila ittifoqi tarkibidagi qabilalarning yana biri chigallar bo'lib, ularning asosiy qismi IX–X asrlarda va undan keyin ham Movarounnahr hududiga kelib joylashib, G'arbiy qoraxonlilar davlatining siyosiy hayotida (qarluq va xalach guruhlari bilan bir vaqtda) faol qatnashib kelganlar. Keyingi asrlarda ular batamom o'troqlashib qishloq va shaharlarda yashab, dehqonchilik va tijorat bilan shug'ullanib kelganlar. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'zbekistan hududida chigil etnik nomi uchramaydi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ma'lum bo'ladiki, qarluq va ularga qardosh chigil va xalach qabilalari G'arbiy qoraxonlilar davlati tanazzulga uchragandan keyin (XIII asr boshida) bir necha asrlar mobaynida Movarounnahr hududida yashab o'zbek xalqining etnik, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shib kelganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev, I. (1984). *Arab tilida she'riyat, til*. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
2. Ashirboyev, S. (2021). *O'zbek dialektologiyasi.* Toshkent: "Nodirabegim" nashriyoti.
3. Baskakov, N.A. (1960). *Tyurkskiye yazyki.* Moskva: Izdatel'stvo vostochnoy literatury.
4. Borovkov, A.K. (1949). Tsennyy istochnik istorii uzbekskogo yazyka. *Izvestiya AN SSSR*, *8*(1), 67–76.
5. Borovkov, A.K. (1952). *Tadjiksko-uzbekskoye dvuyazichiye*. Moskva: Izdatel'stvo «Akademiya».
6. Doniyorov, R. (1965). Rus tilidan o'zlashgan shaxs nomlari. *Filol. fan. nomz. diss. avtoref.* Toshkent.
7. Esin, E. (1978). *İslamiyetten önceki türk kültür tarihi ve islama giriş* (II. Cil.). İstanbul: Edebiyat Fakültesi Matbaası.
8. Gadzhiyeva, N.Z. (1979). *Tyurkoyazychnyye arealy Kavkaza.* Moskva: Nauka.
9. Gulyamov, Kh.G. (1983). *Uzbeksko-tadzhikskiye yazykovyye svyazi*. Tashkent: Izdatel'stvo «Fan».
10. Ishondadayev, D. (1967). Nekotoryye osobennosti slovoobrazovaniya v tadzhikskikh i uzbekskikh govorakh Namanganskoy gruppy okrain (k probleme tadzhikskogo v uzbekskom yazykovom vzaimootnoshenii). *Avtoref. diss. kand. filol. nauk*. Tashkent.
11. Jo'rayev, Sh. (2018). Bilingvizm sharoitida tojik va o'zbek tillarining leksik sathdagi o'zaro aloqalari. *Filol. fan. fals. dok. diss. avtoref.* Samarqand.
12. Koshg'ariy, M. (1960). *Devonu lug'atit- turk*. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
13. Mirzayev, M. (1969). *O'zbek tilining Buxoro guruh shevalari.* Toshkent: "Fan" nashriyoti.
14. Polivanov, Ye.D. (1928). Vokalizm govora gor. Samarkanda (glava opisaniya dvuyazychnoy sistemy). *Doklady Akademii nauk SSSR*, 14, 306–312.
15. Polivanov, Ye.D. (1935). *Materialy po grammatike uzbekskogo yazyka*. Tashkent: Izdatel'stvo «Fan».
16. Reshetov, V.V., & Shoabdurahmonov, Sh. (1978). *O'zbek dialektologiyasi.* Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti.

17. To‘raqulov, A. (1974). Qo‘qon gruppa shevalari leksikasi. *Filol. fan. nomz. diss.* Toshkent.
18. Yartseva, M.T. (Red.). (1990). *Lingvisticheskiy entsiklopedicheskiy slovar’*. Moskva: Bol’shaya rossiyskaya entsiklopediya.
19. Yusupov, K. (1974). *O‘zbek va tojik tillarining o‘zaro ta’siri.* Toshkent: “Fan” nashriyoti.
20. Zokirov, M. (2007). Lingvistik interferensiya va uning o‘zbek-tojik bilingvizmida namoyon bo‘lishi. *Filol. fan. nomz. diss. avtoref.* Toshkent.
21. Özaydın, A. (2001). Karahanlılar. *Türkiye diyanet vakfı islam ansiklopedisi* (c. 24, s. 410). İstanbul: Komaş A.Ş.
22. Özaydın, A., Kamalov, İ., Hunkan, Ö.S., & Cöhce, S. (2013). İlk müslüman türk devletleri. *T.C. Anadolu Üniversitesi Yayını*, 2340, 124.
23. Şahin, K.M. (2010). *Türk tarihi ve kültürü.* Ankara: Okutman Yayıncılık.
24. Shcherbak, A.M. (1959). *Oguz-name. Mukhabbat-name*. Moskva: Izdatel’stvo vostochnoy literatury.
25. Shiraliyev, M.Sh. (1973). Sostoyaniye i zadachi dal'neyshego razvitiya tyurkskoy dialektologii v SSSR. *Sovetskaya tyurkologiya*, 2, 3–9.
26. Shoabdurahmonov, Sh. (1961). *O‘zbek adabiy tili va o‘zbek xalq shevalari.* Toshkent: “Fan” nashriyoti.
27. Shoabdurahmonov, Sh. (1971). *O‘zbek xalq shevalari lug‘ati.* Toshkent: “Fan” nashriyoti.
28. Shoabdurahmonov, Sh. (1977). O‘zbek adabiy tilining taraqqiyoti. *O‘zbek tili va adabiyoti,* 4, 3.
29. Shoniyozov, K.Sh. (1999). *Qarluq davlati va qarluqlar*. Toshkent: “Sharq” nashriyoti.
30. Shoniyozov, K.Sh. (2001). *O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni.* Toshkent: “Sharq” nashriyoti.

REFERENCES

1. Abdullaev, I. (1984). *Poetry, language in Arabic*. Tashkent: Publishing House of ‘Science’.
2. Ashirboev, S. (2021). *Uzbek dialectology*. Tashkent: Publishing House of ‘Nodirabegim’.
3. Baskakov, N.A. (1960). *Turkic languages*. Moscow: Publishing House of Oriental Literature.
4. Borovkov, A.K. (1949). A valuable source of the history of the Uzbek language. *News of the USSR AS*, *8*(1), 67–76.
5. Borovkov, A.K. (1952). *Tajik-Uzbek bilingualism*. Moscow: Academy Publishing House.
6. Doniyorov, R. (1965). Personal names from the Russian language. *Abs. cand. philol. scien. diss*. Tashkent.
7. Esin, E. (1978). *Turkish cultural history before Islam and introduction to Islam* (Vol. 2). Istanbul: Faculty of Letters Press.
8. Gadzhieva, N.Z. (1979). *Turkic-speaking areas of the Caucasus*. Moscow: Publishing House of ‘Science’.
9. Gulyamov, Kh.G. (1983). *Uzbek-Tajik language connections*. Tashkent: Publishing House of ‘Science’.
10. Ishondadaev, D. (1967). Some features of word formation in Tajik and Uzbek conversations of the Namangan group of the district (to the problem of Tajik in the Uzbek language in relationship). *Abs. cand. philol. scien. diss*. Tashkent.
11. Jorayev, Sh. (2018). Interactions of Tajik and Uzbek languages at the lexical level in the conditions of bilingualism. *Abs. PhD. thes*. Samarkand.
12. Kashgari, M. (1960). *Dīwān Lughāt al-Turk*. Tashkent: Publishing House of ‘Science’.
13. Mirzaev, M. (1969). *Bukhara dialects of the Uzbek language*. Tashkent: Publishing House of ‘Science’.
14. Ozaydin, A., Kamalov, I., Hunkan, O.S., & Cohce, S. (2013). The first Muslim Turkish states. *Republic of Turkey Anadolu University Publication*, 2340, 124.
15. Ozaydın, A. (2001). Karakhanids. In *Turkish Religious Foundation Islamic Encyclopedia* (Vol. 24, p. 410). Istanbul: Komaş A.Ş.
16. Polivanov, Y.D. (1928). Vocalism of the Samarkand dialect (chapter describing the bilingual

system). *Reports of the USSR Academy of Sciences*, 14, 306–312.
17. Polivanov, Y.D. (1935). *Materials on the grammar of the Uzbek language*. Tashkent: Publishing House of 'Science'.
18. Reshetov, V.V., & Shoabdurahmanov, Sh. (1978). *Uzbek dialectology*. Tashkent: Publishing House of 'Teacher'.
19. Shahin, K.M. (2010). *Turkish history and culture*. Ankara: Publishing House of 'Instructor'.
20. Shaniozov, K.Sh. (1999). *Qarluq state and Qarluqs*. Tashkent: Publishing House of 'East'.
21. Shaniozov, K.Sh. (2001). *The formation process of the Uzbek people*. Tashkent: Publishing House of 'East'.
22. Shcherbak, A.M. (1959). *Oguz-name. Mukhabbat-name*. Moscow: Publishing House of Oriental Literature.
23. Shiraliev, M.Sh. (1973). The state and tasks of further development of Turkic dialectology in the USSR. *Soviet Turkology*, 2, 3–9.
24. Shoabdurakhmanov, Sh. (1961). *Uzbek literary language and Uzbek folk dialects*. Tashkent: Publishing House of 'Science'.
25. Shoabdurakhmanov, Sh. (1971). *Dictionary of Uzbek folk dialects*. Tashkent: Publishing House of 'Science'.
26. Shoabdurakhmanov, Sh. (1977). The development of the Uzbek literary language. *Uzbek Language and Literature*, 4, 3.
27. Torakulov, A. (1974). Lexicon of dialects of the Kokan group. *Diss. cand. philol. scien*. Tashkent.
28. Yartseva, M.T. (Ed.). (1990). *Linguistic encyclopedic dictionary*. Moscow: Great Russian Encyclopedia.
29. Yusupov, K. (1974). *Interaction of Uzbek and Tajik languages*. Tashkent: Publishing House of 'Science'.
30. Zakirov, M. (2007). Linguistic interference and its manifestation in Uzbek-Tajik bilingualism. *Abs. cand. philol. scien. diss*. Tashkent.